

MILLIY IQTISODIYOTDA IQTISODIY O'SISH VA DINAMIK MUVOZANAT

Qosimova Nodira Saidovna

Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti

Tel:998(99)023-16-19 E-mail: qosimovagtiet.uz@gmail.com

Sharifova Nargiza Djurayevna

Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti

Tel:998(93)6349383 E-mail: nargizasharipova439@gmail.com

Annotatsiya: *Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi juda serqirra jarayon bo'lib, u o'z ichiga iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, aholi hayotining sifati va shart-sharoitlarining takomillashuvini oladi. U hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Ushbu maqolada iqtisodiy o'sishning nazariy jihatlari va iqtisodiy o'sish omillari, ular samaradorligini o'rganish hamda tahlil qilish yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o'sish, ekstensiv iqtisodiy o'sish, intensiv iqtisodiy o'sish, sanoat majmuasi, real daromad, nominal daromad.*

Аннотация: *Экономическое развитие общества представляет собой весьма многообразный процесс, который включает в себя экономический рост, структурные изменения в экономике, улучшение качества жизни и условий жизни населения. Это никогда не происходит по прямой восходящей линии. В данной статье описаны теоретические аспекты экономического роста и факторы экономического роста, изучение и анализ их эффективности.*

Ключевые слова: *Экономическое развитие, экономический рост, экстенсивный экономический рост, интенсивный экономический рост, промышленный комплекс, реальный доход, номинальный доход.*

Resume: *The economic development of society is a very diverse process, which includes economic growth, structural changes in the economy, improvement of the quality of life and conditions of the population. It never happens in a straight, upward line. This article describes the theoretical aspects of economic growth and factors of economic growth, the study and analysis of their effectiveness.*

Key words: *Economic development, economic development, extensive economic development, intensive economic development, industrial complex, real income, nominal income.*

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli, uning mezonlaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi. Makroiqtisodiy tahlilda iqtisodiy o'sishda muvozanat tushunchasi ishlatilib, bu makrotizimning tegishli holatini anglatadi. Bunday holda, u aylanma model doirasidagi barcha oqimlar va zaxiralarning nisbatlarining o'zgarishligi bilan tavsiflanadi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish iqtisodiy o'sishni nazarda tutadi. Iqtisodiy o'sish to'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish darajasini uzoq muddatli ko'payishi tendensiyasini anglatadi. Iqtisodiy o'sish jami taklifning o'sishini yoki boshqacha aytganimizda, haqiqiy va potensial YaIM hajmining oshishini bildiradi.

Iqtisodiy o'sish - bu ma'lum vaqt davomida YaMM (YaIM) hajmining miqdoriy va sifat jihatidan o'zgarishi yoki milliy iqtisodiyotning izchil rivojlanishini anglatadi. Iqtisodiy o'sish muammosini o'rganish natijasida real ishlab chiqarish tizimi duch keluvchi - cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammosiga yechim topiladi. Demak, iqtisodiy o'sish omillari va ular samaradorligini o'rganish hamda tahlil qilish jamiyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Iqtisodiy o'sish nafaqat mamlakat real daromadlarining oshishi, balki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning oshishini ham anglatadi. Iste'mol hajmi dinamikasi iqtisodiyotning provard maqsadini va yashash darajasi oshishini bildirsa, investitsiyalar hajmining o'zgarishi resurs imkoniyatlarining o'sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini anglatadi. Iste'mol va investitsiya o'rtasida yetarlicha muqobillik mavjud, chunki, joriy iste'mol miqdorining oshishi investitsiyalarning daromaddagi ulushini pasaytirish iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini qisqartiradi. Iqtisodiy o'sishni o'lchashning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

- o'sish koeffisienti - o'rganilayotgan davr ko'rsatkichining bazis davr ko'rsatkichiga nisbati;

- o'sish sur'ati - o'sish sur'ati 100% ga ko'paytiriladi;
- qo'shimcha o'sish sur'ati - o'sish sur'ati minus 100%.

Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish, birinchidan, milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga, ikkinchidan, resurslardan samarali va oqilona foydalanishga, uchinchidan, yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga, to'rtinchidan, xalqaro bozorlarda mamlakat obro'sining oshishiga olib keladi. Real ishlab chiqarish hajmlarining uzoq muddatli o'sishi sur'atlarini, ko'lamlarini, samaradorligi va sifati oshishini belgilovchi hodisa va jarayonlar iqtisodiy o'sish omillari deyiladi.

Iqtisodiy o'sish omillari ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruh omillari iqtisodiy o'sishni fizik (ashyoviy) jihatdan ta'minlaydi va bu guruhga ishlab chiqarish omillari kiritiladi:

- tabiiy resurslar soni va sifati;
- mehnat resurslari soni va sifati;
- asosiy kapital hajmi;
- texnologiyalar va ishlab chiqarishni tashkil etish;
- jamiyatda tadbirkorlik malakalarining rivojlanishi darajasi.

Agar iqtisodiyotning qisqa muddatli holati ko'proq yalpi talab bilan belgilansa, uzoq davrga iqtisodiyotning rivojlanishi ko'proq ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli iqtisodiy o'sishni modellashtirishda diqqat markazida real sektor turadi.

Ikkinchi guruh omillariga jamiyatdagi iqtisodiy o'sish potensialini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi omillar – talab va taqsimot omillari (bilvosita omillar) kiritiladi:

- bozorning monopollashuvi darajasining pasayishi;
- iqtisodiyotdagi soliq muhiti;
- kredit-bank tizimi samaradorligi;
- iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlarining o'sishi;
- eksport hajmining o'sishi;
- iqtisodiyotda ishlab chiqarish resurslarini qayta taqsimlash imkoniyatlari;
- daromadlarni taqsimlashning shakllangan tizim.

Agar o'sish qo'shimcha resurslarni jalb etish hisobiga ta'minlansa va jamiyatdagi resurslardan foydalanishning shakllangan o'rtacha samaradorligi darajasini oshirmasa bu - ekstensiv iqtisodiy o'sish deb ataladi. Ekstensiv iqtisodiy o'sish yangi korxonalar, yo'llar, elektrostansiyalar qurish, yangi yerlarni o'zlashtirish, mehnat va tabiiy resurslarni qo'shimcha jalb etish kabilar hisobiga ta'minlanadi. Ammo resurslarning cheklanganligi rivojlanishning ma'lum bir bosqichida ekstensiv iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kamaytiradi va uni ziddiyatli qilib qo'yadi.

YaIMning o'sishi iqtisodiyotda band bo'lganlar sonidan yuqori sur'atga ega bo'lsa, bunda intensiv iqtisodiy o'sish ro'y beradi. Bu jarayonlar quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- fan va texnika yutuqlaridan foydalanish va ishlab chiqarishni yangilashda;
- xodimlar malakasini oshirishda;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish va assortimentini yangilashda.

Intensiv iqtisodiy o'sish esa ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga bog'liq bo'lib, foydalanilayotgan resurs birligiga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishni, ishlab chiqarishning texnik xususiyatlarini yaxshilashni, asosan sanoatni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Shu o'rinda mamlakatning iqtisodiy o'sishida sanoatning o'rni haqida to'xtaladigan bo'lsak, sanoat majmuasi jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanish darajasiga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiyot tarmog'idir. Sanoat majmuasining rivojlanishi Angliyada boshlangan bo'lib, keyinchalik butun dunyoni qamrab oldi. Qadim tarixga nazar tashlasak, "Arxashastra"da ham davlat sanoatni rivojlantirishga alohida xarajat qilgani ta'kidlanadi. Ksenofont qishloq xo'jaligini iqtisodiyotning asosiy tarmog'i bo'lgani uchun dehqonchilikni pasayishi sanoat faoliyati tarmoqlariga ham salbiy ta'sir qiladi deb hisoblagan. Feodal jamiyatning namoyandasi bo'lgan T. Mor sanoat tarmog'i rivojlanishi boshlanishi hamda sanoat inqilobining bo'lishini asosiy sababi sifatida dehqonchilik qilinayotgan yerlarning tortib olinishi, dehqonlar sinfi tugatilib, ko'chaga haydalishi deb hisoblagan. Merkantalizm maktabi namoyondalaridan biri bo'lgan M. Blaug fikricha, sanoatni qo'llab quvvatlash uchun arzon xom ashyoni import qilish, import qilinayotgan sanoat tarmoqlari uchun proteksionistik ta'riflarni qo'yish, tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish lozim bo'lgan. Tomas Man esa sanoat muhim tarmoq bo'lib, sanoatning taraqqiy etishi o'zaro foydali tashqi savdoni rivojlantiradi deb hisoblagan bo'lsa, Uilyam Petti boylukni manbasi savdoda, almashuvda emas, balki ishlab chiqarishda deb, sanoatni rag'batlantirishda davlatning qo'llab-quvvatlashi muhim deb hisoblagan. Fiziokratlar maktabi asoschisi F. Kene esa sanoatni bojxona tariflari bilan himoya qilish, davlat qarz majburiyatlarini chiqarish yo'li bilan sanoat majmuasini rivojlantirishni moliyalash lozim deb hisoblagan. Ann Rober Jak Tyurgo sanoatni unumsiz tarmoq deb hisoblab, ushbu tarmoqda ishlovchilarni unumsiz sinf deb atagan. Klassik maktab namoyandalaridan bo'lgan Adam Smit fiziokratlarning sanoatning "unumsizligi" to'g'risidagi g'oyasiga qarshi chiqadi va sanoatda boyluk yaratilishini ko'rsatib beradi.

Shularni nazarda tutib xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatda yangicha yondashuv va instrumentlarni qo'llagan holatda iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish bo'yicha ko'pgina chora tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Ya'ni, respublika hududlari sanoat tarmoqlari rivojlanishiga erishish uchun raqobatbardoshlikni kuchaytirish, tarmoqlarda xom ashyoni chuqur qayta ishlash va qo'shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarishning yaxlit zanjirini yaratish, tarmoqlararo kooperatsiyani to'liq yo'lga qo'yish orqali sanoat tarmoqlari samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish,

mamlakatda “iqtisodiyotning tarkibida sanoat ulushini ko‘paytirish, yuqori texnologiyali sanoat va qayta ishlash tarmoqlarini jadal rivojlantirish, sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, har bir hududning sanoat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta‘minlash, yangi sanoat korxonalarini va kichik sanoat zonalarini tashkil etish lozim. “Sanoatning 12 ta yetakchi tarmog‘ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlarini jadal amalga oshirish shuningdek, “sanoat tarmoqlarini uzluksiz xomashyo va zamonaviy infratuzilma bilan ta‘minlash . xususan kimyo, neft va gaz, energetika, elektrotexnika, qurilish materiallari, zargarlik sanoatini rivojlantirish, aholining ushbu tarmoqlarda mehnat bandligini oshirishga erishish kerak. Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida “Ilm- fan va texnika yutuqlarini keng qo‘llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, jumladan, sanoat, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish mamlakat rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta‘lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta‘sirchan mexanizmlarini yaratish, innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag‘lar kiritilishini kuchaytirish, aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’yektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlarda “iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat ko‘rsatishining barqarorligini ta‘minlash” kabi vazifalarni amalga oshirish ishlari yuqori suratlarda amalga oshirilmoqda. Ammo shunga qaramasdan, mintaqa iqtisodiyotini tuzilmaviy qayta qurish hamda xom ashyo qazib olishdan, yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishga o‘tish mintaqa iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tishini bildiradi. Hozirgi sharoitda mintaqalardagi texnologik qoloqlik muammosi yangi texnologik ukladlarda to‘g‘ri yo‘nalish olish, innovatsion va investitsion faollikni oshirish, iqtisodiy dinamikaga davlatning ta‘sirini oshirish hamda taraqqiyotning yangi sifatiga o‘tish bilan yechilishi mumkin. Globalizatsiya va jahon raqobatini kuchayishi sharoitida turmush sharoiti bo‘yicha rivojlangan mamlakatlarga yetib olish, sanoat ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirish jarayonisiz amalga oshishi qiyindir. Ushbu holat mintaqalarni aholi o‘rtasida o‘zaro mehnat taqsimotidagi ixtisoslashuvini, hamda yuqori texnologik sanoat tarmoqlarini rivojlantirish zaruriyatini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda sanoat sohasidagi iqtisodiy islohotlar mahalliy va xorijiy sarmoyalarni jalb etib, ishlab chiqarishni yuqori texnologiyalarga asoslangan murakkab turlarini yo‘lga

qo'yishga qaratilgan. Shu o'rinda, chet el investitsiyalari hamda ilg'or texnologiyalarini sanoat ishlab chiqarishini yuqori texnologik tuzilmaviy talablar asosida amalga oshirish uchun yo'naltirish asosiy vazifalardan etib belgilangan bo'lib, bunda sanoat ishlab chiqarishi darajasi va samaradorligining o'sishini ta'minlash maqsadida import o'rnini bosuvchi tarmoqlarni kengaytirish, eksport potensialini oshirish, sanoatni bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish, ilm talab tarmoqlar hissasini oshirish ishlari amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. Mirziyoyev. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz".
2. Sh. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi".
3. Sh. SHodmonov, U.V.Gafurov. "Iqtisodiyot nazariyasi". Toshkent-2005.
4. A.B.Mirzayev, Sh.S.Sharipov, S.B.Boboqulov. "Makroiqtisodiyot" Samarqand-2021.
5. Касимова Нодира Саидовна. "Инвестиционная среда в Узбекистане" "Экономика и социум" №10(101) 2022.
6. Botirova Nilufar Sherqulovna . Fayzieva Shaxnoza Rustamovna "Pandemiya sharoitida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini barqarorlashtirish chora-tadbirlari"